

Konstitutsiya - baxt qomusi

Joriy yilning 7 - dekabr kuni "Yer resurslarini boshqarish" fakultetida erta tongdan har bir guruhning Yoshlar ittifoqi yetakchilari darvoza yonida qator bo'lib saf tortishdi. Sababi ertaga 8 dekabr O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilingan kuni. Shu munosabati bilan har bir guruh yetakchilari maxsus nishonlar tayyorlab, professor o'qituvchilar va talabalarga bayram kayfiyatini ulashdi. Shundan so'ng fakultetning ma'ruzalar zalida O'zbekiston Respublikasining asosiy qonuni, oliy qomusimiz bo'lmish Konstitutsiyamizning 26 yillik munosabati bilan fakultetimizning iqtidorli talabalari o'rtasida "Siz qonunni bilasizmi" shiori ostida tadbir bo'lib o'tdi. Tadbir juda qiziqarli tarzda o'tdi. Unda ishtirok etgan talabalarni fakultet dekani Z. Muqimov tomonidan faxriy yorliqlar topshirildi.



YERB fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini Hurriyat Eshova axboroti

Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov